NAMANGAN VILOYATIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI VA SHAHARLAR TO‘RINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Qosimov Xasanboy Sirojiddinovich
Googrfaya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
Nizomiy nomidagi O’zbekiston Milliy pedagogika unversiteti
Yusupov Xasanboy Baxodir o‘g‘li
Toshkent shahar Yunusobod tumani
258-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori.

Annotatsiya *Ushbu maqolada Namangan viloyatida urbanizatsiya jarayonlarini sifat va son jihatdan rivojlantirish hamda shaharlar to‘rini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Chust, Chortoq va Kosonsoy kabi shaharlarni katta shaharlar darajasiga olib chiqish takliflarini ilgari suradi. Shuningdek, Namangan shahrini 1 million aholiga ega yirik shahriga aylantirish, uning maqomini respublika darajasiga ko‘tarish, viloyat markazini Chust shahriga ko‘chirish hamda qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomini berish orqali 2030-yilga borib urbanizatsiya darajasini 70 foizga yetkazish masalalari ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Namangan viloyati, urbanizatsiya, shaharlar to‘ri, shaharchalar, aglomeratsiya, shaharlar ierarxiyasi.*

Bugungi kunda mamlakatimizda hududlarni barqaror iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishda urbanizatsiya jarayonlarini to‘g‘ri yo‘naltirish hamda shaharlar to‘rini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. [1] Xususan, Namangan viloyatida urbanizatsiya darajasini oshirish nafaqat son ko‘rsatkichlarini ko‘paytirish, balki sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni, jumladan, hududdagi shaharlar ierarxiyasida mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish va infratuzilmani rivojlantirishni talab etadi. [2] Viloyatda aholi zichligi yuqoriligi hamda ko‘plab tutash shaharcha va qishloq aholi punktlarining mavjudligi yirik shahar aglomeratsiyalarini va yangi sanoat-xizmat ko‘rsatish markazlarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Namangan viloyatidagi shaharcha va qishloq aholi punktlarining demoqrafik, hududiy va iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish hamda ularni birlashtirish va maqomini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ishda Namangan shahrining aholi sonini 1 million kishiga yetkazish, Chust, Chortoq va Kosonsoy kabi shaharlarni katta shaharlar tipiga o‘tkazish hamda 2030-yilga borib viloyatda urbanizatsiya darajasini 70 foizga yetkazish yo‘llari yoritib berilgan.

Namangan viloyatida urbanizatsiyani son jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham rivojlantirish zarur hisoblanadi. Bunda, eng avvalo, viloyat shaharlar to‘rini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Jumladan, tuman markazi vazifasini bajaruvchi Uychi, Yangiqo‘rg‘on hamda Jiydakapa shaharchalarida hozirgi kunda 15 mingdan 26 minggacha aholi istiqomat qilishini inobatga olib, ularga shahar maqomini berish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Uychi tumani markazi bo‘lgan Uychi shaharchasini u bilan chegaradosh bo‘lgan Fayziobod va Soku shaharchalari hamda Bog‘ko‘cha va Yorboshi aholi punktlari bilan birlashtirish natijasida 50 mingga yaqin aholiga ega bo‘lgan shaharni shakllantirish imkoniyati mavjud. Xuddi shunday imkoniyat Yangiqo‘rg‘on shaharchasida ham mavjud. Yangiqo‘rg‘on shaharchasi bilan bevosita tutash va chegaradosh bo‘lgan Navkent, Ravot, Sang‘aton, Qorayontoq shaharchalari hamda Buloqboshi aholi punktlarini birlashtirish orqali 50 mingdan ortiq aholiga ega bo‘lgan shaharni shakllantirish mumkin.

Namangan tumani markazi bo‘lgan Toshbuloq shaharchasi va shu tumandagi Navbahor, Qo‘mqo‘rg‘on va Mirishkor shaharchalarini, Yangiqo‘rg‘on tumanidagi Ravot,

Qizilqiyoq shaharchalarini hamda Uychi tumanidagi Mashad va O‘nhayot shaharchalarini Namangan shahri bilan bevosita chegaradoshligini inobatga olgan holda, shahar tarkibiga kiritish natijasida shahar aholisi qariyb 100 ming kishiga ortadi. Bu esa Namangan shahrining million aholiga ega shahar maqomiga erishishini yanada tezlashtiradi.

Viloyatdagi ikkinchi yirik shahar Chust shahri hozirgi kunda 85 mingdan ortiq aholiga ega bo‘lib, katta shaharlar qatoriga yaqinlashmoqda. Shaharda hozirgi kunda keng ko‘lamdagi qurilish ishlari olib borilmoqda. Chust temiryo‘l stansiyasidan 12 km masofaga temiryo‘l tortib kelinishi ham shahar rivojiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shahar yaqinida Chust sity va Yangi O‘zbekiston massivlarining qurilishi natijasida shahar aholisi yaqin yillarda 100 mingdan ortib, katta shaharga aylanadi. Viloyatda hozirgi kunda katta shahar mavjud emasligi natijasida shaharlar ierarxiyasida bo‘shliq mavjud.

Yuqoridagi kabi katta shaharga aylanish imkoniyati Chortoq shahrida ham mavjud bo‘lib, bugungi kunda shaharda 65 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. [4] Shahar bilan bevosita tutash bo‘lgan Koroskon shaharchasida esa 25 mingga yaqin aholi mavjud. Shuningdek, yana bir shahar bilan tutash bo‘lgan Ayrikon shaharchasida 8 mingdan ortiq aholi mavjud. Mazkur shaharchalarni Chortoq shahri tarkibiga kiritish natijasida shahar aholisi 100 mingga yaqinlashadi va 2030-yilga qadar 100 mingdan ortiq aholiga ega katta shaharga aylanadi. Natijada viloyatda ikkinchi katta shahar vujudga keladi.

Viloyatdagi Kosonsoy shahri ham katta shaharlar tipiga o‘tish uchun bir qancha imkoniyatlarga ega. Shahar bilan bevosita chegaradosh bo‘lgan Koson, Ozod, Chustko‘cha, Bog‘ishamol va Istiqlol shaharchalarida hozirgi kunda 39 ming aholi istiqomat qiladi. Kosonsoy aholisi hozirgi kunda 62 mingdan ortiqni tashkil qiladi. Ushbu shaharchalarni shahar tarkibiga kiritish natijasida Kosonsoy shahri ham uchinchi katta shaharga aylanishi mumkin.

Viloyatdagi Uchqo‘rg‘on, To‘raqo‘rg‘on, Pop va Haqqulobod shaharlari kichik shaharlar hisoblanadi. Uchqo‘rg‘on shahri hozirgi kunda 50 mingga yaqin aholiga ega bo‘lib, joriy yilda shahar kichik shaharlar turidan o‘rta shaharlar tipiga o‘tadi. To‘raqo‘rg‘on shahri 37 ming aholiga ega bo‘lib, uning yonida shahar bilan qorishib ketgan Yettikon shaharchasida esa 14 mingdan ortiq aholi istiqomat qilishini inobatga olib, shaharchani To‘raqo‘rg‘on shahri tarkibiga qo‘shish natijasida shahar kichik shahar turidan katta shahar turiga o‘tadi. Haqqulobod shahri esa aholining tabiiy ko‘payishi va shaharda yangi qurilgan turar joylarga ichki migratsiyani yo‘naltirish orqali 2045-yilga kelib o‘rta shaharlar qatoriga kirishi mumkin.

Pop shahri esa hozirgi kunda 31 mingdan ortiq aholiga ega bo‘lib, kichik shahar hisoblanadi. Lekin shaharning rivojlanish imkoniyati Pop–Angren temiryo‘lining qurilishi natijasida ancha ortdi. [3] Shahar yirik transport tuguni va logistika markaziga aylanib bormoqda. Shahar yaqinidagi Xo‘jaobod, Xalqaobod hamda Qo‘rg‘onobod shaharchalarini Pop shahri tarkibiga kiritish natijasida shahar kichik shahardan o‘rta shaharga aylanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yuqoridagi shaharlarni rivojlantirish imkoniyatlarini amalga oshirish natijasida mavjud 8 ta shahar o‘rnida 11 ta shahar shakllangan holda, viloyatda katta shaharlar soni 3 taga, o‘rta shaharlar soni 6 taga va kichik shaharlar soni 2 taga yetadi. Aksincha, shaharchalar soni 28 taga kamayib, 87 tani tashkil qiladi.

Viloyatdagi ayrim qishloq aholi punktlari o‘zining geografik o‘rni, ishlab chiqarish salohiyati va aholining bandligida noqishloq xo‘jaligi faoliyatining yuqoriligi hamda boshqa

omillar natijasida shaharcha maqomini olish imkoniyatiga ega. Ushbu islohotlar natijasida viloyatda shaharchalar soni 90 tani tashkil qilgan holda, shaharchalarni kompleks rivojlantirish choralarini ko‘rish talab etiladi. Eng avvalo, shaharchalarda ijtimoiy infratuzilmalar bilan birga texnik infratuzilmalarni ham rivojlantirish zarur. Bu borada shaharchalarning bosh rejalarini ishlab chiqish asosida qurilish ishlarini tashkil etish zarur (1-jadval).


1-jadval

Shaharcha maqomi berish taklif qilinayotgan qishloq aholi pinktlari

T/r	Qishloq aholi punkti	Aholi soni	Joylashgan tumani	Imkoniyatlari
1	Xizirobod	10521	Uychi	Uychi temir stansiyasi, agro va yengil sanoat hududi, xizmat ko‘rsatish
2	Xo‘jand	9215	To‘raqo‘rg‘on	Tranport chorraxasi va savdo xizmat ko‘rsatish markazi
3	Terpaqo‘rgon	12310	Namangan	Agro va yengil sanoat hududi

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Viloyatdagi urbanizatsiya imkoniyatlaridan to‘liq foydalangan holda shaharlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shaharlar rivoji bevosita hududning urbanistik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada 2030-yilga borib urbanizatsiya darajasini 70 foizga yetkazish imkoniyati vujudga keladi. Namangan shahri 2030-yilga qadar 1 million aholiga ega shaharga aylanish imkoniyatiga ega ekanligi ham hududning urbanistik salohiyati yuqoriligini belgilaydi. Shaharning viloyat markazi sifatidagi funksiyasini inobatga olib, uning maqomini viloyat darajasidan respublika darajasiga ko‘tarish lozim. Viloyat markazi sifatida esa Chust shahrini belgilash taklifi beriladi. Namangan shahrining bosh rejasiga ko‘ra, shahar hududi asosan Namangan va To‘raqo‘rg‘on tumanlari hisobiga kengaymoqda (1-rasm). Shundan kelib chiqib, ushbu ikki tumanni birlashtirish lozim. Tuman markazi sifatida esa To‘raqo‘rg‘on shahrini belgilash maqsadga muvofiq bo‘lardi. Namangan tumani markazi bo‘lgan Toshbuloqni esa Namangan shahri tarkibiga qo‘shish taklif etiladi.



1-rasm Namangan shahrining 2045 yilgacha bo’lgan bosh rejasi

(Manba. *dshk.shaffofqurilish.uz* sayti) [5]

Namangan shahrida hozirgi kunda Davlatobod va Yangi Namangan tumanlari hamda Namangan shahar hokimligi hududlari mavjud. Shahar aholisi 1 millionga yetishini hisobga olgan holda, shaharning tarixiy qismida Chorsu tumanini va qolgan hududlarda Namangan tumanini tashkil etilsa, shaharda jami 4 ta tuman tashkil etilgan bo‘lar edi.

Xulosa qilib aytganda, aholi zich joylashgan shaharcha va qishloqlarni birlashtirish asosida yangi shaharlar tashkil etish, ayniqsa, Namangan atrofidagi hududlarni kengaytirish orqali yirik aglomeratsiyani shakllantirish viloyat rivojiga kuchli turtki beradi. Shu bilan birga, Chust, Chortoq va Kosonsoy kabi shaharlarni katta shaharlar darajasiga olib chiqish orqali hududiy muvozanat ta’minlanadi. Mazkur islohotlar natijasida viloyatda shaharlar ierarxiyasi shakllanib, urbanizatsiya darajasi sezilarli darajada oshadi, infratuzilma rivojlanadi va iqtisodiy faollik kuchayadi. Natijada 2030-yilga borib viloyatda urbanizatsiya darajasini yuqori bosqichga olib chiqish hamda Namangan shahrini 1 million aholiga ega shaharga aylantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbaalar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5623-son Farmoni.
2. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi. — Toshkent: Universitet, 2018. — 184 b.
3. Nazarov M.T., Qodirov R.B. Namangan viloyati shaharlari va shaharchalarining demografik hamda urbanistik salohiyati // Geografiya va geourbanistika masalalari. — Namangan, 2022. — № 2. — B. 45–52.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Namangan viloyatining statistik axborotnomasi (2023–2024-yillar). — Namangan, 2024.
5. https://dshk.shaffofqurilish.uz/

FARG‘ONA VODIYSIDA URBANISTIK JARAYONLARNING SHAKLLANISHI VA HUDUDIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.

Akbarova Zuhraxon Azimjon qizi
Farg‘oan davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysida urbanistik jarayonlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va hududiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Farg‘ona vodiysi O‘zbekistonning aholisi zich joylashgan, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan faol hududlaridan biri hisoblanadi. Maqolada vodiy shaharlarining tarixiy rivojlanishi, sanoat, transport, demografik o‘sish, migratsiya jarayonlari hamda tabiiy-geografik omillarning urbanizatsiyaga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida shaharlar tizimining shakllanishi, kichik va o‘rta shaharlarning rivojlanish yo‘nalishlari hamda urbanistik jarayonlarning hududlar kesimidagi farqli jihatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Farg‘ona vodiysida urbanizatsiya jarayonlari aholining joylashuvi, ishlab chiqarish kuchlari va infratuzilma rivoji bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar:*Farg‘ona vodiysi, urbanizatsiya, urbanistik jarayonlar, hududiy rivojlanish, shaharlar tizimi, demografik o‘sish, infratuzilma, migratsiya, shahar aglomeratsiyasi.*

Kirish. Bugungi kunda urbanizatsiya jarayonlari mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Shaharlarning kengayishi, aholining shaharlarda to‘planishi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi hududiy taraqqiyotga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, aholisi zich joylashgan hududlarda urbanistik jarayonlarning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Farg‘ona vodiysi O‘zbekistonning eng qadimiy, iqtisodiy faol va aholisi zich joylashgan hududlaridan biri bo‘lib, bu yerda shaharlar tizimi tarixiy, tabiiy-geografik,